



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,  
5-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari .....	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni .....	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari .....	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish .....	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari .....	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida .....	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli .....	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari .....	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli .....	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari .....	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni .....	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish .....	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi .....	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-diagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar .....	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari .....	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии .....	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды .....	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей .....	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	

# “INKLYUZIV TA'LIM. GOSPITAL PEDAGOGIKA” FANIDA DASTURIY- METODIK TA'MINOTNING MAZMUNIIY-TEKNOLOGIK VA MONITORING-DIAGNOSTIK KOMPONENTLARI

Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich

Farg'ona davlat texnika universiteti, katta o'qituvchi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanining dasturiy-metodik ta’minoti tarkibidagi mazmuniy, texnologik hamda monitoring-dagnostik komponentlarning o’zaro bog’liqligi va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda inklyuziv ta’lim muhitida va shifoxona maktablarida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo’lgan elektron ta’lim resurslari, adaptiv o’quv materiallari, raqamli platformalar, baholash mezonlari hamda diagnostik vositalarning imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** inklyuziv ta’lim, gospital pedagogika, dasturiy-metodik ta’minot, adaptiv ta’lim, raqamli platforma, elektron ta’lim resurslari, monitoring, diagnostika, baholash, maxsus ta’lim ehtiyojlari.

**Abstract:** This article examines the content, technological, and monitoring-diagnostic components of the program-methodological support for the course “Inclusive Education. Hospital Pedagogy.” The study analyzes their role in ensuring effective educational processes within inclusive learning environments and hospital schools. Particular attention is paid to digital educational resources, adaptive learning materials, electronic platforms, assessment criteria, and diagnostic tools.

**Key words:** inclusive education, hospital pedagogy, program-methodological support, adaptive learning, digital platform, electronic educational resources, monitoring, diagnostics, assessment, special educational needs.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются содержательные, технологические и мониторингово-диагностические компоненты программно-методического обеспечения дисциплины “Инклюзивное образование. Госпитальная педагогика”. Анализируется их роль в организации эффективного образовательного процесса в условиях инклюзивного обучения и госпитальных школ. Особое внимание уделяется электронным образовательным ресурсам, адаптивным учебным материалам, цифровым платформам, критериям оценки и диагностическим инструментам.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, госпитальная педагогика, программно-методическое обеспечение, адаптивное обучение, цифровая платформа, электронные образовательные ресурсы, мониторинг, диагностика, оценивание, особые образовательные потребности.

## KIRISH

Dasturiy-metodik ta’minotning zarurati O’zbekiston ta’lim siyosatidagi inklyuzivlik, tenglik, alohida ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish va ta’lim jarayonini shaxs imkoniyatlariga moslashtirish talablari bilan ham asoslanadi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda ta’lim olishda teng huquqlilik, uzluksizlik va insonparvarlik tamoyillari mustahkamlangan bo’lsa, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirishga oid qarorlarda maxsus pedagogik sharoitlarni yaratish, metodik yordam ko’rsatish va moslashtirilgan ta’limni yo’lga qo’yish vazifalari belgilangan. Gospital pedagogika doirasida esa bu talab yanada murakkablashadi: bolaning sog’lig’i, davolanish rejimi, emotsional holati, ota-onaning ishtiroki va ta’lim muassasasi bilan aloqa bir vaqtda hisobga olinadi [1-3].

Uzoq muddat davolanayotgan bolalar ta’limi bo’yicha normativ-huquqiy asoslar, xususan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid tartiblar hamda statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishdagi bolalar uchun ta’limni tashkil etish masalasiga qaratilgan hukumat qarorlari bo’ljak o’qituvchining vazifasini aniqroq ko’rsatadi: pedagog bola bilan individual ishlashi, ota-ona va tibbiyot xodimi bilan muvofiqlashi, ta’lim mazmunini moslashtirishi, psixologik qo’llab-quvvatlashga e’tibor berishi kerak. “Mehrli maktab” faoli-



yatini yo'lga qo'yish bo'yicha qarorlar bu jarayonning tashkiliy modelini kengaytirib, davolanish sharoitida ham ta'limning uzluksizligi va bolani ijtimoiy muhitdan ajratmaslik zaruratini mustahkamlaydi.

Xalqaro ilmiy yondashuvlarda inklyuziya alohida bolani "mavjud tizimga moslashtirish" emas, balki ta'lim tizimini turli ehtiyojlarga mos holda o'zgartirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. UNESCOning inklyuziya haqidagi hisobotlarida "barcha uchun ta'lim" g'oyasi nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarni qamrab olish, balki ta'lim muhitidagi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish vazifasini ham o'z ichiga olishi qayd etiladi. Nogironlar huquqlari bo'yicha xalqaro sharhlarda inklyuziv ta'limni ta'minlash maktab, oila, jamoa va davlat institutlarining birgalikdagi mas'uliyati ekanligi ta'kidlanadi. Shu jihatdan dasturiy-metodik ta'minot mazmuni bo'lajak o'qituvchini alohida sinf xonasiga emas, balki o'zaro bog'langan subyektlar tizimiga tayyorlashi lozim<sup>[1, 6]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogika masalalari pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy olimlardan M.Ainscow, L.Florian, J.Black-Hawkins inklyuziv ta'limning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, ular ta'lim muhitini barcha o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Gospital pedagogika bo'yicha tadqiqotlarda uzoq muddat davolanayotgan bolalarning ta'lim jarayonini uzluksiz tashkil etish va individual yondashuv muhimligi qayd etilgan.

Mahalliy olimlardan R.A.Mavlonova, N.Nishanova, Z.Nishanova, B.X.Xodjayev, O'.Tolipov va M.Usmonboevlarning ilmiy ishlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik qo'llab-quvvatlash, maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish hamda inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Raqamli ta'lim resurslari, adaptiv o'quv materiallari va monitoring-dagnostik vositalardan foydalanish masalalari UNESCO hamda DigCompEdu tavsiyalarida keng yoritilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" fanining dasturiy-metodik ta'minotini mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlar asosida takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida dasturiy-metodik ta'minot quyidagi uch mezon asosida belgilanadi.

*Birinchidan*, u fan mazmunini real kasbiy vaziyatlar bilan bog'laydi. Talaba inklyuziv ta'limning huquqiy asoslari, gospital pedagogikaning zarurati, "Mehrlı maktab", uy ta'limi, imkoniyati cheklangan bolalar toifalari, pedagogik nazariyalar, individual dasturlar, ijtimoiylashuv metodlari va interfaol usullarni o'rganadi, biroq bu bilimlar alohida-alohida qolmasdan amaliy vazifalarga aylantiriladi.

*Ikkinchidan*, u subyektlararo hamkorlikni loyihalashga xizmat qiladi.

*Uchinchidan*, u o'quv natijasini baholash va qayta moslashtirish uchun monitoring-dagnostik mexanizm yaratadi<sup>[7]</sup>.

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'limga oid milliy adabiyotlarda ta'lim jarayonini bolaning individual rivojlanishi, mavjud imkoniyatlari va ehtiyojlariga ko'ra moslashtirish zarurligi qayd etiladi. Mazkur tushunchalar "Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" fanida qayta talqin etilganda, bo'lajak o'qituvchi nafaqat maxsus ehtiyojlarni bilishi, balki bu ehtiyojlarni umumiy ta'lim mazmuni, raqamli resurs, ota-ona bilan maslahat, tibbiy cheklov va formativ baholash bilan bog'lay olishi zarur bo'ladi.

Dasturiy-metodik ta'minotning dissertatsion talqini "subyektlar faoliyatini tashkil etish" kategoriyasi bilan uzviy bog'langan. Bu kategoriyada bola/o'quvchi, talaba, fan o'qituvchisi, maxsus pedagog, amaliyotchi o'qituvchi, ota-ona, tibbiyot xodimi, psixolog, tyutor, ta'lim muassasasi rahbariyati, sinfdoshlar yoki guruhdoshlar va ijtimoiy hamkorlar o'zaro munosabatda bo'ladi. Dasturiy-metodik ta'minot esa subyektlar faoliyatini maqsad, vosita, vaqt, mas'ul shaxs, kutiladigan natija va teskari aloqa nuqtalari orqali tartibga soladi.

Ilmiy adabiyotlarda inklyuziv pedagogika o'qituvchidan ta'limdagi farqlarni istisno sifatida emas, tabiiy didaktik holat sifatida qabul qilishni talab etishi bilan izohlanadi. Ainscow, Florian va boshqa tadqiqotchilar inklyuziv amaliyotning muvaffaqiyati o'qituvchining hamkorlikka ochiqqligi, sinf va maktab madaniyatini o'zgartira olishi hamda bolalarning ovozini eshita olishi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun dasturiy-metodik ta'minot bo'lajak o'qituvchini tayyor javoblarni yodlashga emas, pedagogik vaziyatni tahlil qilish, to'siqlarni aniqlash va bir nechta yechimni sinab ko'rishga yo'naltirishi kerak<sup>[2-5]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, dasturiy-metodik ta'minotning uch komponenti ajratildi: 1) mazmuniy-texnologik komponent, 2) kommunikativ-kollaborativ komponent va 3) monitoring-dagnostik komponent.

Mazmuniy-texnologik komponent talaba "nimani va qanday o'rganadi?" degan savolga javob beradi; kommunikativ-kollaborativ komponent "kim bilan va qanday hamkorlikda ishlaydi?" degan savolni ochadi; moni-

toring-diagnostik komponent esa “natija qanday aniqlanadi va keyingi moslashtirish qanday bajariladi?” degan savolni hal qiladi (1-jadval).

1-jadval: Dasturiy-metodik ta'minot komponentlarining umumiy tavsifi

Komponent	Asosiy mazmun	Fan doirasidagi amaliy ifoda	Kutiladigan pedagogik natija
<b>Mazmuni-texnologik</b>	Fan mavzulari, modullar, interfaol metodlar, individual dasturlar, adaptiv kontent, raqamli resurslar, amaliy va kvazikasbiy topshiriqlar.	Ma'ruza, seminar, mustaqil ta'lim, keys, loyiha, elektron resurslar banki va o'quv topshiriqlari majmuasi.	Talaba inklyuziv-gospital vaziyatni metodik jihatdan loyihalaydi va moslashtirilgan ta'lim yechimini ishlab chiqadi.
<b>Kommunikativ-kollaborativ</b>	Bola, ota-ona, pedagog, maxsus pedagog, psixolog, tibbiyot xodimi va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik algoritmlari.	Maslahat ssenariysi, muloqot xaritasi, kichik guruhdagi ish, jamoaviy loyiha, ota-ona bilan qayta aloqa shakllari.	Talaba subyektlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, pedagogik etikaga rioya qiladi va hamkorlikni muvofiqlashtiradi.
<b>Monitoring-diagnostik</b>	Individual ehtiyojlarni aniqlash, rivojlanish dinamikasini kuzatish, formativ baholash, rubrika, chek-list, elektron portfolio va tahlil.	Kirish diagnostikasi, kuzatuv varaqasi, progress xaritasi, refleksiya kundaligi, baholash mezonlari, adaptiv tavsiyalar.	Talaba dalillarga asoslangan qaror qabul qiladi, ta'lim yo'nalishini qayta moslashtiradi va natija dinamikasini izohlaydi.

Mazmuniy-texnologik komponent dasturiy-metodik ta'minotning didaktik yadrosini tashkil etadi. Uning mazmuni fan dasturidagi mavzularni kasbiy faoliyatga yaqinlashtirish, ularni talaba bajarishi mumkin bo'lgan loyiha, keys, mashq, elektron kontent va metodik vazifaga aylantirish bilan belgilanadi. Fan dasturida inklyuziv ta'limning predmeti, huquqiy asoslari, “Mehri maktab” va uy ta'limi, inklyuziv ta'limning ijtimoiy fenomen sifatidagi mazmuni, integratsiya va inklyuziya farqlari, imkoniyati cheklangan bolalar toifalari, bolalarni jalb etish, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi, pedagogik nazariyalar, individual dasturlar, o'quv muhiti, interfaol usullar, o'qituvchi va ota-onalarga pedagogik-psixologik maslahat berish kabi mavzular izchil berilgan. Mazkur mavzularning o'zi hali komponentni yaratmaydi; komponent ular orasida texnologik bog'lanish o'rnatilganda shakllanadi.

Mazmuniy-texnologik komponentda har bir mavzu uch darajada qayta ishlanadi: nazariy tushuncha, metodik operatsiya va amaliy mahsulot. Masalan, “inklyuziv va integratsion ta'lim” mavzusi nazariy darajada farqlarni tushuntiradi; metodik darajada o'quv muhiti qaysi holatda bolaning ehtiyojlariga moslashishi yoki moslashmasligini tahlil qildiradi; amaliy mahsulot darajasida esa talaba “moslashtirilgan dars rejasini”, “individual qo'llab-quvvatlash varaqasi” yoki “resurs xaritasi”ni tayyorlaydi. Shunday qilib, fan mazmuni talabada amaliy harakat algoritmini shakllantiradigan texnologiyaga aylanadi [3-7].

Inklyuziv pedagogika nazariyasida o'qituvchi barcha o'quvchilar uchun umumiy, ammo moslashuvchan ta'lim muhitini loyihalay olishi muhimligi qayd etiladi. Florian va Black-Hawkins bu yondashuvni o'qituvchining sinfdagi farqlarni ajratish emas, balki umumiy ta'limni kengaytirish orqali qamrab olishi bilan bog'laydi. Pantić va Florian esa o'qituvchini inklyuziya va ijtimoiy adolat agenti sifatida tayyorlash zarurligini ko'rsatadi. Mazmuniy-texnologik komponent aynan shu nuqtadan kelib chiqadi: talaba alohida bola uchun “kamaytirilgan” dars emas, balki turli ehtiyojlarga moslashuvchi, ijtimoiy ishtirokni qo'llab-quvvatlovchi va natijani ko'rishga imkon beruvchi ta'lim jarayonini loyihalashi kerak.

Bu komponentning asosiy ichki bloklari quyidagilardan iborat: o'quv mazmuni bloki, metodik vazifalar bloki, adaptiv kontent bloki, raqamli resurslar bloki, interfaol-metodik usullar bloki va kvazikasbiy loyihalar bloki. O'quv mazmuni bloki fan mavzulari va asosiy tushunchalarni qamrab oladi. Metodik vazifalar bloki mazkur mavzularni pedagogik muammoga aylantiradi. Adaptiv kontent bloki bir xil mavzuni turli darajada, turli formatda va turli sur'atda berish imkonini yaratadi. Raqamli resurslar bloki elektron materiallar, onlayn test, video izoh, audio topshiriq, interaktiv prezentatsiya, QR-kodli manbalar va elektron portfolio elementlarini o'z ichiga oladi. Kvazikasbiy loyihalar bloki esa talabaning real ishga o'xshash vaziyatlarda qaror qabul qilishini ta'minlaydi.

Universal Design for Learning yondashuvi mazmuniy-texnologik komponent uchun muhim metodologik asos bo'la oladi. UDL tamoyillarida ta'lim mazmunini turli ko'rinishlarda taqdim etish, o'quvchilarga bilimni turli shaklda ifodalash imkonini berish va motivatsiyani qo'llab-quvvatlash g'oyalari ilgari suriladi. Meyer, Rose va Gordon bu yondashuvni o'quv muhitidagi moslashuvchanlik bilan bog'laydi. Hospital pedagogika sharoitida bu tamoyillar ayniqsa ahamiyatlidir, chunki bolaning jismoniy holati, charchash darajasi, muolaja vaqti, diqqat barqarorligi yoki psixologik kayfiyati ta'lim faoliyati shaklini tez-tez o'zgartirishni talab qiladi.



Mazmuniy-texnologik komponent talaba uchun tayyor "retsept" bermaydi; aksincha, vaziyatga qarab tanlanadigan metodik variantlar bankini yaratadi. Masalan, uzoq muddat davolanayotgan bolaga mavzu bir vaqtning o'zida uch shaklda taklif qilinishi mumkin: qisqa video yoki audio izoh, rasmlar bilan tushuntirilgan matn, kichik bosqichlarga bo'lingan amaliy topshiriq. Talaba ushbu variantlardan qaysi biri bolaning holatiga mosligini, qaysi biri ota-ona ko'magini talab qilishini, qaysi biri sinfdoshlar bilan muloqotni saqlashini va qaysi biri keyingi baholash uchun dalil berishini tahlil qiladi. Shu tarzda texnologik komponent bolani ta'limga jalb etishning amaliy mexanizmiga aylanadi.

Raqamli vositalar mazmuniy-texnologik komponentda maqsad emas, pedagogik vosita sifatida qo'llanadi. UNESCOning o'qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari ramkasida raqamli texnologiyalar ta'lim mazmunini boyitish, hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash va o'quv jarayonini boshqarish vositasi sifatida izohlanadi. DigCompEdu ramkasi esa pedagogning raqamli resurslarni tanlash, yaratish, baholash, o'quvchilarni faollashtirish va ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish vazifalarini ko'rsatadi. Bu manbalar asosida dasturiy-metodik ta'minotga kiritiladigan elektron resurslar o'z-o'zicha "zamonaviylik belgisi" emas, balki inklyuziv ta'lim vazifasiga xizmat qiladigan moslashtiruvchi mexanizm bo'lishi lozimligi aniqlanadi.

Mazmuniy-texnologik komponentda o'quv topshiriqlari uch turga ajratilishi maqsadga muvofiq: 1) reproduktiv-tahliliy, 2) konstruktiv-loyihaviy va 3) reflektiv-baholovchi topshiriqlar.

Reproduktiv-tahliliy topshiriqlar talabaning huquqiy asoslar, tushunchalar va nazariy yondashuvlarni anglashini tekshiradi. Konstruktiv-loyihaviy topshiriqlar individual ta'lim dasturi, moslashtirilgan topshiriq, onlayn resurs yoki muloqot ssenariysi yaratishni talab qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, dasturiy-metodik ta'minotning samaradorligi undagi resurslar soni bilan emas, balki ularning o'zaro bog'langanligi, pedagogik vaziyatga moslashuvchanligi, subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish quvvati va monitoring natijasiga tayangan holda takomillashish imkoniyati bilan belgilanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. PF-6079-son, 05.10.2020. - URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. PF-5847-son, 08.10.2019. - URL: <https://lex.uz/docs/-4545884>.
3. UNICEF. Seen, Counted, Included: Using data to shed light on the well-being of children with disabilities. – New York: UNICEF, 2021. - 336 p.
4. UNICEF. UNICEF Disability Inclusion Policy and Strategy 2022-2030. - New York: UNICEF, 2022. - 45 p.
5. Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika: o'quv dasturi. - Chirchiq: Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 2025. - B. 2-8.
6. European Commission. Digital Education Action Plan 2021-2027: Resetting education and training for the digital age. - Brussels: European Commission, 2020. - 24 p.
7. Florian L. On the necessary co-existence of special and inclusive education // International Journal of Inclusive Education. - 2019. - Vol. 23(7-8). - P. 691-704.
8. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring inclusive pedagogy // British Educational Research Journal. - 2011. - Vol. 37(5). - P. 813-828.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.